

## MTTDA BOLALARNI MATEMATIK TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISHDA QO'LLANILADIGAN ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALARNING AHAMIYATI. "BILIMDON BOLA"

*Sodiqova Lola Rahimovna*

*Jondor pedagogika kolleji. "Bolalarni matematik tasavvurlarini shakllantirish" fan o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola bolalarga ilk yoshlardan boshlab matematikani o'rgatish jarayoni haqida so'z yuritadi. Uning foydali jihatlari, o'rgatish usullarini bayon qiladi. Shuningdek, matematikani o'rgatishni bir necha usullarini tahlil qilib, bir necha xil o'yinlarga misollar keltiriladi. Matematikani bolalar tafakkuriga ijobiy ta'sir qilishi keng yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, musiqaviy o'yinlar, dunyoqarash, qoida, intellektual salohiyat, matematik fikr yuritish, rag'batlantirish, tafakkur.

Maktabgacha yosh davri- bolalarning rivojlanishidagi muhim bosqich bo'lib hisoblanadi, bu davrda ularning fiziologik, psixologik, jismoniy, ruhiy, ma'naviy, axloqiy, aqliy jihatdan rivojlanadi va shu bilan birgalikda insonlarga mehr oqibatli bo'lish, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat qilish kabi bir qator insoniy fazilatlarni tarbiya lashga zamin yaratiladi. Shu boisdan maktabgacha tarbiya muassasalarida mazkur maqsadlarga ko'ra qator ishlarni olib borish, shu jumladan, turli didaktik o'yinlar texnologiyalaridan foydalanish va boshqa vositalar orqali bolalarning elementar matematik tasavvurlarini shakllantirish, ularni har tomonlama barkamol, jismonan sog'lom, aqlan yetuk, ruhan tetik qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Didaktik o'yinlar orqali bolalarning faoliyati mustahkamlanishi bilan birgalikda turli xil shakllar to'g'risidagi ma'lumotlarni berish orqali bolalarning elementar matematik tasavvurlari shakllanib boradi. Didaktik o'yinlar orqali bolalar faoliyati mustahkamlanadi, hayot haqidagi ilk tasavvurlari, jonli va jonsiz tabiat haqidagi o'y-fikrlari, turli buyum predmetlarning ko'rinishi, nomi, rangi, shakli, tuzilishi, o'simlik va hayvonot olamidagi rang-baranglikni anglyadilar. O'yin jarayonida bolalar turli qiyinchiliklarni, har qanday to'siqlarni yengib o'tishga harakat qilib o'rganib boradilar. O'yin qadim zamonlardan mavjud bo'lgan va u ko'pgina pedagoglar, psixologlar, olimlar diqqatini o'ziga tortib kelgan. O'yin ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq yuzaga kelgan bo'lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi. Bugungi kunda o'yinlarning turli-tuman turlari mavjud: milliy o'yinlar,

Didaktik o'yinlar - asosan ta'lim jarayonini bolalarning yosh xususiyatlari va tayyorgarliklariga qarab samarali tashkil qilishga, ularga bilim va ma'lumot berishni yengillashtirishga, bolalarni toliqtirmaslik va zeriktirmaslik imkonini yaratadi.

Didaktik o'yinlar bolalarning aqliy faoliyatlarini, ongini o'stirishga xizmat qiladi, shu bilan bir qatorda ularning nutqini o'stirish, atrof muhit bilan, tabiat bilan

tanishtirishda bolalarning ekologik tarbiyasida ham keng qo'llaniladi. Didaktik o'yinlar xilma-xil materiallar asosida tashkil qilinadi.

Didaktik o'yinning boshqa o'yin turidan farqi shundaki, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga ta'lim berishda o'yinning bu turidan keng foydalaniladi. Bola o'yinda ishtirok etish jarayonida bilim oladi, malaka va ko'nikmalar hosil qiladi. Didaktik o'yinlar ta'lim bilan bevosita uzviy bog'liq bo'lib unga yordam beradi. Bunday o'yinlar kichik bolalar uchun «Rangiga qarab top», «Shakliga qarab top», va katta guruh bolalari uchun «Dehqonlar nimani yetishtirishadi», «Kim ko'proq narsani nomini ayta oladi», «Qarab ol-u, eslab qol», «Nimaning shakli tasvirlangan» kabi o'yinlarni aytish mumkin. O'yinda qatnashgan bolalarni maqtash rag'batlantirish mumkin. Didaktik o'yinning xususiyati shundaki, unda tarbiyachi bilan bolalar munosabati bevosita o'yin tarzida kechadi. Bunda tarbiyachi shu o'yin qatnashchisi yoki tashkilotchisi bo'ladi. O'yinlar bolalarda kuzatuvchanlikni, mashq qilish nutqlarini ravon qilish, elementar matematik tushunchalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Tarbiyachi didaktik o'yinni bolalarni qiziqtirgan holatda tugallashi lozim, ya'ni bolalar shu o'yinni yana davom ettirish istagi bilan qolsinlar. Bolalar birdaniga tushunchalar vositasida o'ylamaydilar. Ularning tafakkuri ma'lum yoshgacha konkret bo'lib tasavvurlar yordamida vujudga keladi. Tushunchani tarkib toptirishda shunga erishmoq kerakki, tushuncha bir xil miqdorlarning barcha muhim bo'lmagan xossalarini tashlab turib, ularning asosiy xossalarini va belgilarini umumlashtirishini bolalar yaxshi anglab olsin. Masalan: «Uchburchak» tushunchasi- uchta burchagi va kesmalardan iborat uchta tomoni mavjudligini umumlashtiradi. Inson tafakkuri nutq bilan, til bilan uzviy bog'liq bo'lganligi sababli maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar fikr yuritishning vujudga kelishi va rivojlanishi ularning matematik bilimi bilan o'lchanadi. Biroq, ularda ko'rgazmali harakat, ko'rgazmali-obrazli tafakkur turlari bilan bevosita ifodalanadigan tafakkurdan oldinroq namoyon bo'ladi. Bolada paydo bo'layotgan elementar tafakkur uning predmet va jismlarga, o'yinchoqlarga, buyumlarga nisbatan bildirilayotgan harakatlarida ko'zga tashlanadi. Bir yoshga yetguniga qadar ovozli o'yinch oqlarni ushlab ko'rish va ulardan foydalana olish uquvining paydo bo'lishi fikr yuritish faoliyatida sifat o'zgarishlarining yuzaga kelayotganligidan dalolat beradi. Bolalarning o'yinchoqlar bilan bevosita va bilvosita muloqotga kirishishi ularda tafakkurning o'sayotganligidan dalolat beradi. Asta-sekinlik bilan ularda analitik-sintetik faoliyat vujudga keladi. Oila a'zolari bola bilan muloqotga kirishganlarida uni so'z va tushunchalar mohiyatiga yetaklashlari tafakkurning rivojlanishi uchun muhim imkoniyat yaratadi. Kattalarning jism va predmetlarning nomini aytib bolaga ko'rsatishlari va bunga javoban go'dakning munosabat bildirishi elementar tushunishning (anglashning) paydo bo'layotganligi va elementar matematik tasavvurlarning shakllanayotganligidan dalolat beradi. Bolalarni aqliy tomondan tarbiyalashda boshlang'ich matematik tushunchaga katta ahamiyat beradi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda va boshlang'ich maktab yoshida elementar matematika tasavvurlarini taraqqiy ettirish muammolari ustida ilmiy ishlar olib borgan pedagog Y. N. Tixeyeva o'z sistema va qarashlarini tanqid qildi. Y. N. Tixeyeva «Bola bilimni hayotdan olishi kerak, hayotning o'zi har qadamda bolaning oldiga amaliy vazifalarni qo'yadi, ya'ni o'lchash, sanash, ayirishlar kabi. Har bir normal bola

kattalarning yordamisiz 10 gacha sanashni bilib oladi, deydi olim. Ayniqsa birinchi o'nlik sonlarni bilib olishga katta ahamiyat beradi. U bolani sanashga o'rgatishda majbur qilmaslik kerak, faqat unga ko'rgazmali, didaktik material berish kerak deydi. U juda qiziqarli didaktik o'yinlarni ishlab chiqdi. Didaktik o'yin bu o'rgatishning eng asosiy metodi deydi. U "Didaktik o'yinlar" kitobida tarbiyachilarning ish tajribalaridan foydalanadi. Chunki, biz bilamizki, bolalarni faqat maxsus mashg'ulotlardagina emas, tasodifiy o'yinlar orqali ham o'rgatish mumkin. Didaktik o'yin esa asosiy metodlardan faqat bittasidir. Lekin u birdan-bir metod bo'la olmaydi. U boshqa metodlar bilan birgalikda qo'llaniladi..

Y. Komenskiyning fikriga ko'ra, "Bolalar har doim hamma narsani qilishga tayyor. Bu juda foydali va shuning uchun nafaqat ularning ishiga aralashmaslik kerak, balki ular doimo qiladigan biror narsaga ega bo'lishlarini ta'minlash uchun choralar ko'rish kerak". Matematikaning ajoyib olami bilan tanishish maktabgacha yoshdan boshlanadi. Qiziqish va xohish bilan bolalar raqamlar bilan tanishadilar, ular bilan ishlashni o'rganadilar, obyektlarni hajmi bo'yicha taqqoslaydilar, o'rganadilar geometrik figuralar makon va zamonda orientatsiya qilish malakasini egallaydi. Matematika tafakkur, mantiq va diqqatni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar beradi. Bo'limlarda bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun didaktik o'yinlarda elementar matematik tasvirlarni shakllantirish muhim rol o'ynaydi. O'yin - bu bolalarning yetakchi faoliyati, faqat o'yinda bola ko'zga tashlanmasdan o'rganadi va bilimlarni muvaffaqiyatli mustahkamlaydi. Didaktik o'yin bolalarning aqliy jarayonlarini faollashtiradi, ma'naviy va axloqiy kamolotida ularni mukammal inson bo'lib kamol topishida g'oyat tarbiyaviy ahamiyatni kasb etadi.

Ta'lim berish jarayonida bola ma'lum bilimlarga ega bo'ladi. Ta'lim berishda kattalar o'zlarini bilimlarini kichiklar miyyasiga joylashtirish emas balki bola bilimlarni ongli o'zlashtirishiga qaratishi lozim. Ta'lim berish jarayonida bolalarda xayol, fikr, xotira, bilimga qiziqish, aqliy faollik va o'zaro munosabatni shakllantiradi.

Ta'lim tarbiya bola shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgandir. Ilk matem tasavvurlarni rivojlantirish talabi esa avvalom bor bolalardarni predmetlarni sanog'i va miqdori, fazoviy joylanishuvi va vaqt haqidagi tasavvurlarni rivojlantirishni nazarda tutadi. Bolalar uchun dunyo yangi bog'lanish va munosabatlarda ochiladi. Masalan: Bolalar tanish bo'lgan daraxtni uning balandligi, tanasining qalinligi, shoxlarining ko'pligi, ularning shakli, uzun-ingichkaligi qiziqtiradi. Daraxtlarni taqqoslash jarayonida ular qaysi daraxt past qaysinisi baland, uning barglarini shakli, kattaligi haqida tushuncha hosil bo'ladi. O'qitish vazifasi faqat bilim berish emas balki shu bilimlar orqali hayotga tevarak atrofdagi borliqqa, mehnatga, kishilarga to'g'ri munosabat hosil qilishdir. Ta'lim va tarbiya bir-biri bilan ajralmasdir jarayondir.

### **Xulosa**

Matematikani o'rgatishning asosiy maqsadi bolada tarbiyaviylikni rivojlantirish. Tarbiyaviylik prinsipi maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tassavvurlarni shakllantirishda fanga bo'lgan qiziqishni uyg'otish ya'ni bilimlarni o'zlashtirishga harakatini, ularni egallash va mustaqil kengaytira olishga o'rgatishni o'z ichiga oladi shu bilan birga ularda tafakkurni shakllantirish, matematik tushuncha va tasavvurlar bilan boyitish, xotira va diqqatni rivojlantirish, ijodiy tafakkurni tarbiyalash kabi ishlarni amalga oshirishni talab etadi. Bu prinsip maktabgacha

yoshdagi bolalarda ziyraklik, topqirlik, aqllilik xislatlari bilan birga Vatanga muhabbatni hamda rostgo'ylik, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlarni tarbiyalash ham matematika mashg'ulotlarida amalga oshirish imkoniyatlari mavjudligini ifodalaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta'lim Vazirining buyrug'i. Ro'yxat raqami № 3032. 03.07.2018-y.

2.N.U. Bikbayeva "Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tushunchalarni shakillantirish" O'qituvchi. Qo'llanma.-1995.

3. "Grosheva I., Yestafyeva L., Maxmudova D., Nabixanova Sh., Pak S., Nazarova V. G., Abdunazarova N., Isxakova M. "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun Davlat o'quv dasturi, to'ldirilgan ikkinchi nashr. Toshkent-2022.

3. Э. 4. Yestafyeva L., Nabixanova Sh., Pak S., Usmonova D., Ashrabxo'jayeva M., Rizayeva X., Nuritdinova L., Karimova F.,Nurmuhamedova G., Muhamadaliyeva M., Musayeva G., Gayfulina F. "Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim jarayonini mavzuli rejalashtirish (katta guruh)". Toshkent-2018.

4.R. Kurmakayeva . "Elementar matematika rejalari" Toshkent. «Fan» nashriyoti, «Nur» Qo'llanma - 1992. .

5. M.E.Jumayev. "Bolalarni matematik tushunchalarini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi" Toshkent. «Ilm-Ziyo» Qo'llanma - 2005.

6.N.U. Bikbayeva "Matematikadan jadvallar" Toshkent. MTM tayyorlov guruhlari uchun tavsiya. «O'qituvchi»-1995 yil.

7.. Qudrat Do'stmuhammad. "1 dan o'ngacha" MTM tayyorlov guruhlari uchun tavsiya Toshkent. «Sharq»-2000

8. . Ibrohimova. "Matematik hazillar, topishmoqlar, labirintlar" «Kichik yoshdagi o'quvchilar, ota – onalar va tarbiyachilar uchun» Toshkent. «O'qituvchi» -1996.

9. Sh.Boltayeva."O'ynaymiz, o'ylaymiz, aqlimizni charxlaymiz" UICC «Uzincomcenter» MTM tayyorlov guruhlari uchun tavsiya Toshkent- 2002 yil.